



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI  
TOSHKENT SHAHAR KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK  
BOSH BOSHQARMASI  
BUYRUQ**

14 may 2024 yil. №135/-son

Toshkent shahar.

**Toshkent shahar Kambag‘allikni qisqartirish  
va bandlik bosh boshqarmasi tizimida “Huquqni  
muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish  
tartibi”ni belgilash to‘g‘risida**

Toshkent shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari hujjatlarini rasmiylashtirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibini belgilash hamda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 121-sonli buyrug‘i talablarini ijrosini ta‘minlash maqsadida,

**B U Y U R A M A N :**

- O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 20-iyul kunidagi 121-son buyrug‘i ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
- Quyidagilar:  
huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga;  
aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 2-ilovaga;  
korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi 3-ilovaga;  
korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
- Bosh boshqarma apparati, tuman bo‘limlari va tasarrufiy tashkilotlar mazkur tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.
- Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Bosh boshqarma boshlig‘ining  
birinchi o‘rinbosari**



**Sh.Inogamov**